



QASHQADARYO VILOYATI PERINATAL MARKAZI

Buyruq № 106 «T»

05.10. 2023 yil

Qarshi shaxar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 sentabrdagi "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-296-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023 yil 15 sentabrdagi "Respublika Ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning hududiy filialining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 230-sonli buyrug'i va Qashqadaryo viloyati Hokimining 02.10.2023 yildagi 446-4-0-Q/23-sonli qarori hamda Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining 28.09.2023 yildagi 90 T sonli buyruqlari ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Markazda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 sentabrdagi "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-296-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023 yil 15 sentabrdagi "Respublika Ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning hududiy filialining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 230-sonli buyrug'i va Qashqadaryo viloyati Hokimining 02.10.2023 yildagi 446-4-0-Q/23-sonli qarori hamda Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining 28.09.2023 yildagi 90 T sonli buyruqlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 sentabrdagi "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-296-son qaroriga muvofiq:

a) 2023 yil 1 oktabrdan boshlab:

Qashqadaryo viloyati Perinatal markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika "Ona va bola skrining" markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o'rinlarda Markaz);

b) Qashqadaryo viloyati Perinatal markazi, aholi reproduktiv salomatligi hamda "Ona va bola skrining" markazlarining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi etib belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining mazkur buyrug'iga asosan Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qashqadaryo viloyati filialining ustavi 6-ilorvaga muvofiq, tuzilmasi 6a-ilorvaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qashqadaryo viloyati filiali bosh shifokori B.J.Shodiyevga va markaz bosh xisobchisi A.A.Xolmurodovga:

Bir xafra muddatda filial ustavini qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazlishi ta'minlansin;

-tegishli muhr, blankalar va boshqalarga o'zgartirishlar kiritilsin.

5. Qashqadaryo viloyati Perinatal, aholi reproduktiv salomatligi hamda "Ona va bola skrining" markazi direktorlari:

Sog'liqni saqlash vazirligining mazkur buyrug'ining 5-bandiga asosan Qashqadaryo viloyati Perinatal markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika "Ona va bola skrining" markazi direktorlari Qashqadaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan birgalikda:

- uch kun muddatda inventarizatsiya o'tkazish bo'yicha komissiya tuzilsin (ilova-1)

- Qashqadaryo viloyat Perinatal markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatlik va Qashqadaryo viloyat "Ona va bola skrining" markazlariga tegishli bo'lgan bino-inshootlar va tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiya qilinishi hamda inventarizatsiya natijalari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qashqadaryo viloyati filiali balansiga o'tkazilsin;

- ma'nan eskirgan va foydalanishga yaroqsiz bo'lgan asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni qonunchilikda belgilangan tartibda hisobdan chiqarilishini ta'minlash choralari ko'rilsin.

6. Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi Qashqadaryo filiali va Qashqadaryo viloyat "Ona va bola skrining" markazlari o'z markazlarida shtat birliklari qisqartirilishi mumkin bo'lgan lavozimlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarni mehnat qonunchiligiga rioya qilgan holda ish bilan ta'minlash choralari ko'rilsin.

7. Markazda Sog'liqni saqlash vazirligining mazkur buyrug'i qabul qilinishi munosabati bilan Sog'liqni saqlash vazirining 16-ilorvaga muvofiq ayrim buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi inobatga olinsin.

8. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni markazning bosh shifokori B.J.Shodiyev zimmasiga yuklatilsin.

Bosh shifokor:

B.J.Shodiyev

**Qashqadaryo viloyati Perinatal
markazining 05.10.2023 yildagi
№“106T” sonli burug’iga 1- ilova**

Komissiya a’zolari

Komissiya raisi, Perinatal markazi bosh shifokori	B.J.Shodiyev
A’zolari:	
Qashqadaryo viloyat “Ona va bola skrining” markazi rahbari	D.Sh.Tursunov
Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi Qashqadaryo filiali direktori	N.X.Saidova
Qashqadaryo viloyati Perinatal markazi bosh xisobchisi	A.Xolmurodov
Qashqadaryo viloyati Perinatal markazi xisobchisi	X.Husanov
Qashqadaryo viloyati Perinatal markazi xisobchisi	Y.Qodirova
Qashqadaryo viloyati Perinatal markazi kadrlar bo’limi boshlig’i	M.Arabova
Qashqadaryo viloyati Perinatal markazi xo’jalik mudiri	A.Xayitov
Qashqadaryo viloyat “Ona va bola skrining” markazi bosh xisobchisi	A.Latipova
Qashqadaryo viloyat “Ona va bola skrining” markazi xo’jalik mudiri	B.Nazarov
Qashqadaryo viloyat “Ona va bola skrining” markazi kadrlar bo’yicha inspektori	G.Siddiqova
Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi Qashqadaryo filiali bosh xisobchisi	S.Bozorova